

## JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHI VA MURABBIYLARNING PEDAGOGIK MAHORATI OSHIRISH OMILLARI

*Azizov Muxammadjon Azamovich*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti*

*Sport va harakatli o'yinlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda mamlakatimizda yosh mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish usullarini izlash, o'qitishning shakl va metodlarini rasionallashtirish maummosi turibdi. Bu muammo odamlar hayotida tobora ahamiyatga ega bo'lib borayotgan jismoniy madaniyat va sport sohasida ham dolzarb hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport, pedagogik mahorat, psixologik-pedagogik, o'quv-tarbiyaviy, hissiy-irodaviy, salohiyat, ta'lim-tarbiya.

**Аннотация.** В настоящее время в нашей стране стоит задача поиска путей повышения эффективности подготовки молодых специалистов, рационализации форм и методов обучения. Эта проблема актуальна и в сфере физической культуры и спорта, которые приобретают все большее значение в жизни людей.

**Ключевые слова:** физическая культура, спорт, педагогическое мастерство, психолого-педагогическое, учебно-воспитательное, эмоционально-волевое, потенциал, учебно-воспитательное.

Pedagogik mahorat rivojlangan psixologik-pedagogik tafakkur, kasbiy pedagogik bilimlar, ko'nikma va malakalar, o'zini ifoda etishning hissiy-irodaviy vositalari sintezidan iborat. O'qituvchilarning mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo, pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim.

Mahorat – bu alohida qudrat. Pedagogik mahoratga etishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi hamda o'quv-tarbiyaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi. Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik jarayonning o'ziga xosligi uning tuzilishi va mazmuni, o'qituvchilarning shakllanishiga turtki bo'ladi. O'qituvchi, o'quvchi-yoshlarga jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha ta'lim (o'rgatish) berish, tarbiyalash va sog'lomlashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Pedagogik mahorat pedagogik madaniyatning asosiy komponenti hisoblanib, u ham o'z navbatida murakkab tuzilishga ega. U quyidagi to'rtta qismdan iborat:

Pedagogik texnologiya

Pedagogik mahorat

Predmetni bilish

Pedagogik uslub

O'quv fanini, uning tarxini, nazariyasi, metodikasi va zamonaviy amaliyotni bilish pedagogik mahoratning asosini, fundamentini tashkil etadi. Fanning barcha sohalarining jadal taraqqiyoti va yangilanish davrida kasbiy kompetentlik (salohiyat)ning muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda o'zgarib borayotgan tashkiliy vosita, shakl, metodlar va ijtimoiy shart-sharoitlar o'qituvchilarga yangi talablar qo'yimoqda.

Ma'lumki, yuqori jismoniy-amaliy tayyorgarlik o'quv-tarbiyaviy jarayonning sifati va samaradorligini belgilaydi. Jismoniy tarbiya sohasida va uni o'qitish metodikasi sohasida o'quv fanini puxta bilish, bu bilimlarning yuqori darajadagi sport unvoniga va shaxsiy tajribaga asoslanganligi (masalan, sport ustasi) ijodiy yondoshishga imkon yaratadi. Agar mutaxassis yangi axborotlarga ega bo'lmasa, uning malaka mahorati pasayadi. Shu bois, u shaxsiy vaqtining 15- 20 foizini ilg'or ilmiy yutuqlar bilan tanishishga sarflashi kerak.

O'qituvchining ta'lim va tarbiya sohasida orttirgan tajribasi, pedagogik-psixologik tadqiqotlarini yangi yutuqlarini egallashdagi salohiyati (bu uning ilmiy malaka mahoratida namoyon bo'ladi) ilgarilab boruvchi kasbiy tafakkurni ta'minlaydigan istiqbolli ta'limni amalga oshirishga imkon yaratadi. Pedagogik ijodiyot – pedagogik mahoratning muhim va sezilarli tarkibiy qismidir. Uning mohiyati ta'lim va tarbiyaning yuqori natijalarida namoyon bo'ladi. Bu esa —o'qituvchi-ta'lim oluvchilar tizimining o'zaro ta'siri oqibati yuzaga keladi.

Pedagogik ijodiyot turli muammoli vaziyatlarning kelib chiqishi va ularni o'qituvchi o'zining tasavvuri hamda nostandart yo'l bilan hal qilishga intilishi bilan belgilanadi. Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlarini farqlanadi:

Loyixalash;

Konstrukstiyalash;

Tashkilotchilik;

Muloqot;

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda aniq tarixiy davrda qabul qilingan (normalar, standart) va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan

barcha tajribalardan rastional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim.

Haqiqiy ijod axborotning to'laligiga, ilmiy bashoratga tayanadi. Shuningdek, u o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog ta'sirning izchil metod, shakl va vositalarining turli kombinatsiyalarini hal gal yangicha va samarali qo'llash ko'nikmasiga asoslanadi. Pedagogik uslub – muayyan davr (maktab) pedagoglarining o'ziga xos fikr va harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, boshqa davr (maktab) pedagoglarining qarashlaridan farq qiladi. Har bir pedagogning ish uslubi takrorlanmas, individualdir.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar jismoniy tarbiya o'qituvchi-murabbiylarning pedagogik mahoratiga ega bo'lishiga va uning kasbiy mahoratini egallashga munosib xizmat qiladi hamda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hamkorlik asosida muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarova Zulxumor Urinbaevna, Umarov Abdusamat Abdumalikovich. "Physical development of youth in preschool education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.4 (2022): 405-406.

2. Шодиев Эргашали, Ирматов Шавкат, Якубжонова Ферузахон. "Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish." Общество и инновации 2.2/S (2021): 683-687.

3. Abdullaev, R. (2023). Necessary formation of complex competence safety of tourist services during the development of a structural-functional model. Science and innovation, 2(A2), 261-264.

4. Abdullaev, R. (2023). Bases of scientific and technological support of the process of formation of special tourist knowledge, abilities and skills. Science and innovation, 2(B3), 122-123.

5. Abdullayev, R. (2022). The Process Of Quality Education-As A Mechanical Combination Of Teaching And Learning Processes. Procedia of Social Sciences and Humanities, 4, 57-59.

6. Abdullayev, R. (2022). Indicators of criteria for evaluating the effectiveness of forensic support for the inspection of the scene. Инновационные подходы в современной науке (pp. 64-69).

7. Гофуров, Абдувохид Махмудович, and Абдушокир Махмудович Гофуров. "ФИЗКУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ПУТИ К УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE"



INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.

8.Mukhammedovich, Jurayev Vokhidjon. "Psychological Foundations of Willpower in the Formation of Competition Motivation in Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 315-318.

9.Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

10.Makhmudovich, Gofurov Abdovokhid, and Gofurov Abdushokir Makhmudovich. "STUDY OF FUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG SWIMMERS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 29-31.

11.Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.

12.Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДА'ВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.ТМА Conference (2023): 894-900.

13.Abdullayev, Rustam. "The Process Of Quality Education-As A Mechanical Combination Of Teaching And Learning Processes." Procedia of Social Sciences and Humanities 4 (2022): 57-59.

14.Abdullayev, Rustam. "INDICATORS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF FORENSIC SUPPORT FOR THE INSPECTION OF THE SCENE." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2022.

15.Араббоев, К. Т., and Е. Я. Михайлова. "ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕГРИРОВАННОГО МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 753-757.945825205

16.Mukhammedovich, Juraev Vohidjon. "Psychological Features of Competitive Motivation of Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 312-314.

17. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "The effect of physical activity on the body of schoolchildren in physical education lessons." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 112-115.

18. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.